

**O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTA VA KRIPTO-BIRJALARNI JORIY QILISH
MEHANIZMLARI**

Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li

Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ko'maklashish va kriptobirjalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagagi PQ-3832-son qarori qabul qilindi. Farmon kripto-aktivlar muomalasini muayyan huquqiy hujjatlar orqali tartibga soladi va tegishli imtiyozlar beradi. soliqlar bo'yicha operatsiyalar. Litsenziyalangan tashkilotlar valyuta operatsiyalarini tartibga soluvchi cheklolvlarsiz amalga oshirishi mumkin. Kriptobirjalar jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha qat'iy qonunlarga rioya qilishlari kerak. Sanoat konlari uchastkalari elektron auktsionlarsiz ajratiladi. Yangi qoidalar kripto almashinushi uchun majburiy to'lovlarни 400 BHM dan 740 BHM gacha va kripto-do'konlar uchun 20 BHM dan 185 BHM gacha oshirdi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, kripto-birjalar, O'zbekiston, kripto-aktivlar, me'yoriy-huquqiy baza, soliqqa tortish, litsenziyalash, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash, sanoat qazib olish, to'loymi oshirish.

Abstract. To promote the development of the digital economy and establish favorable conditions for crypto-exchanges, the President of Uzbekistan issued Decree No. PQ-3832 on July 3, 2018. The decree regulates the circulation of crypto-assets through specific legal documents and exempts related operations from taxes. Licensed entities can conduct currency operations without regulatory constraints. Crypto-exchanges must adhere to strict anti-money laundering and anti-terrorism laws. Industrial mining sites are allocated without electronic auctions. New regulations have increased mandatory fees for crypto-exchanges from 400 BHM to 740 BHM and for crypto-stores from 20 BHM to 185 BHM.

Keywords: digital economy, crypto-exchanges, Uzbekistan, crypto-assets, regulatory framework, taxation, licensing, anti-money laundering, industrial mining, fee increase.

Абстракт. В целях содействия развитию цифровой экономики и создания благоприятных условий для криптобирж Президент Узбекистана от 3 июля 2018 года издал Указ № PQ-3832. Указ регулирует оборот криптоактивов посредством конкретных правовых документов и освобождает от уплаты налогов, связанных с операции с налогами. Лицензированные лица могут проводить валютные операции без регуляторных ограничений. Криптовалютные биржи должны соблюдать строгие законы по борьбе с отмыванием денег и терроризму. Участки промышленной добычи выделяются без электронных аукционов. Новые правила увеличили обязательные сборы для криптовалютных бирж с 400 до 740 BHM и для криптомуагазинов с 20 до 185 BHM.

Ключевые слова: цифровая экономика, криптобиржи, Узбекистан, криптоактивы, нормативно-правовая база, налогообложение, лицензирование, борьба с отмыванием денег, промышленный майнинг, повышение пошлин.

Kirish. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qaroriga muvofiq:

kripto-aktivlar aylanmasi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi;

yuridik va jismoni shaxslarning kripto-aktivlar aylanmasi bilan bog'lik operatsiyalari, jumladan norezidentlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar soliq solinadigan obyekt hisoblanmaydi, mazkur operatsiyalar yuzasidan olingan daromadlar esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga kiritilmaydi;

kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxslar tomonidan o'tkaziladigan kripto-aktivlar aylanmasi bilan bog'liq valyuta operatsiyalariga valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari tatbiq etilmaydi; kripto-aktivlarni ayrboshlash, sotib olish va sotish uchun elektron maydoncha taqdim etadigan tashkilot kripto-birja hisoblanadi;

blokcheyndagi qiymatga ega va egasi bo'lgan qaydlar majmuasi kripto-aktiv hisoblanadi;

kripto-aktivlar aylanmasi bo'yicha faoliyatga va kripto-birjalar faoliyatiga qimmatli qog'ozlar, birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari tatbiq etilmaydi;

kripto-birja faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya faqat chet el yuridik shaxslariga O'zbekiston Respublikasi hududida sho'ba yoki boshqa korxonalarni ochish orqali beriladi;

kripto-birjalar faoliyatini ularning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishi qismida nazorat qilish funksiyalari kripto-birjalar faoliyatini litsenziyalovchi organga va tegishli vakolatli davlat organlariga korib chiqadi;

sanoat mayningini amalga oshirish uchun (oyiga 100 KVt/s dan ortiq foydalanish) yer uchastkalari "O'zbekenergo" AJ va "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, tegishlichcha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan kelishilgan holda belgilanadigan maxsus hududlarda elektron auksion o'tkazmasdan beriladi.

3. Kripto-birjalar faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi asosiy litsenziya talablari va shartlari belgilansin:

a) ariza berilgan sanada pul mablag'i shaklida bazaviy hisoblash miqdorining kamida o'ttiz ming baravari miqdorida shakllantirilgan ustav jamg'armasi mavjudligi, shundan yigirma ming baravari O'zbekiston Respublikasining tijorat bankida alohida hisobvara qda zaxiraga qo'yiladi;

b) O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan serverlarga joylashtirilgan hamda Kripto-birjalar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomda nazarda tutiladigan talablarga javob beradigan ishlab turgan elektron kripto-birja savdo tizimi mavjudligi;

v) quyidagilar aks ettirilishi shart bo'lgan kripto-birja savdo qoidalaring mavjudligi:

ishtiroychilarga kripto-birja savdolarida ishtiroy etishga ruxsat berish tartibi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun

hujjatlari talablarining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar; kripto-aktivlarni muomalaga qo'yish va muomaladan chiqarishga ruxsat berish tartib-taomillari;

kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi; bitimlar tuzishda kripto-birja savdolari ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;

kripto-birja xizmatidan foydalanganlik uchun to'lov miqdori va uni belgilash tartibi;

kripto-birjalarda narxlar manipulatsiyasi va maxfiy axborotdan noqonuniy foydalanishning oldini olish choralar;

kripto-aktivlardan g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanishni taqiqlash;

g) kripto-aktivlarni kotirovkalashni ularga bo'lgan talab va taklif asosida amalga oshirish;

d) mijozlarning kripto-aktivlar bilan operatsiyalari to'g'risidagi axborotni, shuningdek, ularning identifikatsiya ma'lumotlarini va mijozlar bilan o'zaro munosabatlar bo'yicha materiallarni, jumladan ish yozishmalarini besh yil davomida saqlash.

4. Kripto-birjalarga: ko'rsatilgan xizmatlar uchun, shu jumladan kripto-aktivlar shaklida mukofot olish, uning miqdorini va uni savdolar ishtirokchilari (mijozlar)dan undirish tartibini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari bilan kripto-aktivlarni milliy va xorijiy valyutaga sotib olish va (yoki) begonalashtirishga, shuningdek, kripto-aktivlarni boshqa kripto-aktivlarga ayriboshlashga qaratilgan birja bitimlarini tashkil etish huquqi berilsin.

5. Belgilab qo'yilsinki: kripto-birjalar faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish uchun davlat boji miqdori va uni to'lash tartibi litsenziyalovchi organ tomonidan belgilanadi; kripto-birjalar faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berishdan tushadigan davlat bojining barcha summasi litsenziyalovchi organning hisobraqamiga o'tkaziladi.

Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun yig'imlar miqdorini belgilash, ularni to'lash va taqsimlash tartibi to'g'risidagi Istiqbolli loyihamar milliy agentligi direktorining 3388-sonli buyrug'iga asosan kripto-do'kon va kripto birjalar faoliyatida to'lab boriladigan yig'imlar quyidagicha belgilangan edi;

- ❖ Kripto-birja faoliyati uchun — BHMning 400 baravari (136 000 000 so'm)
- ❖ Kripto-do'kon faoliyati uchun — BHMning 20 baravari (6 800 000 so'm)

Endilikda 2024 yil 5 martdagи 17-sonli "Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun yig'imlar miqdorini belgilash, ularni to'lash va taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomning 2-bandiga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qaroriga muvofiq Istiqbolloj loyihamar milliy agntligining ushbu 3388-son buyrug'iga o'zgartirish kiritildi.

Ushbu yangi qabul qilingan nizomga muvofiq kripto-do'kon va kripto-birjalar doimiy to'lab borishi shart bo'lgan yig'imlar oshirilib, quyidagicha belgilandi;

- ❖ Kripto-birja (400 BHM dan 740 BHM (251 600 000 so'm) ga oshirildi.
- ❖ Kripto-do'kon (20 BHM dan 185 BHM (62 900 000 so'm) oshirildi.

Kripto-do'kon va kripto-birjalar uchun doimiy to'lab boriladigan yig'imlar sezilarli o'zgorganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Davlat yig'imlarining oshirilishiga sabab qilib Istiqbolli loyihamar milliy agentligi kripto-birja va kripto-do'konlarning faoliyati tahlili ularning yetarli darajada rentabelligini ko'rsatayotganligini keltirmoqda.

Xulosa. O'zbekistonda kripto-birjalar va digital aktivlar bilan bog'liq tashkilotlar uchun kerakli infratuzilma va xizmatlar yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu, o'z navbatida, raqamli iqtisodiyotning o'sishini qo'llab-quvvatlaydi. Kriptovalyuta sohasida xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur normativ-huquqiy baza ishlab chiqilmoqda. Bu, investorlarni firibgarlik va boshqa noqonuniy faoliyatlardan himoya qilishga qaratilgan. O'zbekistonning kriptovalyuta va kripto-birjalarni joriy qilishdagi yondashuvi, iqtisodiy o'sish va raqamli transformatsiyani ta'minlash maqsadida, innovatsion va zamonaviy texnologiyalarni qamrab olgan kompleks tizim sifatida ishlab chiqilmoqda. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, kelajakda mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqboljon o'g'li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'LCHASH OMILLARI. Kokand University Research Base, 746-750.
2. Iqboljon o'g'li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI. Kokand University Research Base, 742-745.
3. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
4. Hamidjon Rasulov. (2023). SIYOSIY MOJAROLARNING TURIZMGA TA'SIRI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 147–150.
5. A. A. Yusupov. (2024). ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL MECHANISM OF EFFECTIVE USE OF HUMAN RESOURCES IN SMALL BUSINESS SUBJECTS IN UZBEKISTAN. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(5), 70–73.
6. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
7. Omonjon, U. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZIMNI RIVOJLANTIRISHDA FESTIVALLARNING O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 306-309.
8. Boburjon, T. (2024). SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 145-150.